BUXORO VILOYATI JONDOR TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

200600, Jondor tumani, M.Tarobiy ko‘chasi, 26-uy. Tel: (65) 58-21-853, faks: 58-22-653, jondor.t@exat.uz

2022 - yil 30 - sentabr 439-2-35-Q/22 Jondor tuman hokimligi

Jondor tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.Jondor tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yichatariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Tuman hokimi o‘rinbosari A.Zokirov, tuman obodonlashtirish boshqarmasi (I.Muzaffarov)larga:

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Sanitariya qoidalari va meyorlariga qatiyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun er uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish topshrilsin.

3.Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i I.Muzaffarovga:

Xizmatlar uchun qatiyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4.Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Jondor ovozi” gazetasi bosh tahririyati (I.Haydarov) ushbu qaror matnini “Jondor ovozi” gazetasida chop etilishini ta’minlasin.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Zokirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Hikmatov**

Jondor tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
439-2-35-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Jondor tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	Bir o‘ringa	50 %
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	Bir o‘ringa	50 %
3	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar kichik o‘lchamda)	Bir o‘ringa	30 %
4	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar 3 yoshgacha	Bir o‘ringa	Bepul
5	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
6	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin kuniga	Bepul

Izoh: Jondor tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori bazaviy hisoblash miqdori ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.